

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulotni (keyingi o'rinlarda – YaHM) dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YaHM – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

2018 yilda yalpi ichki (hududiy) mahsulot


	YaIM (YaHM)		Aholi jon boshiga YaIM (YaHM)	
	mlrd. so'm	o'sish sur'atlari, %	ming so'm	o'sish sur'atlari, %
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	407 514,5	105,1	12 365,6	103,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 185,2	103,4	7 642,9	101,9
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	27 121,6	112,1	8 923,9	110,2
Buxoro	21 151,9	104,6	11 222,4	103,1
Jizzax	11 820,2	102,6	8 830,3	100,7

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

	YaIM (YaHM)		Aholi jon boshiga YaIM (YaHM)	
	mlrd. so'm	o'sish sur'atlari, %	ming so'm	o'sish sur'atlari, %
Qashqadaryo	28 412,2	101,0	8 932,1	99,0
Navoiy	21 729,0	103,4	22 489,1	101,7
Namangan	18 141,4	102,5	6 654,7	100,6
Samarqand	31 187,4	99,3	8 295,8	97,3
Surxondaryo	17 061,9	101,0	6 712,5	98,9
Sirdaryo	8 200,5	102,1	9 966,6	100,4
Toshkent	38 398,7	106,4	13 333,4	105,1
Farg'ona	25 181,2	103,9	6 895,7	102,2
Xorazm	15 154,2	103,0	8 325,6	101,3
Toshkent sh.	53 287,1	108,1	21 419,4	106,2


2018 yil yakunlari bo'yicha Toshkent shahri (108,1 %), Andijon (112,1 %) va Toshkent viloyatlarida (106,4 %) yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Respublika darajasiga (105,1 %) nisbatan past o'sish sur'atlari Samarqand (99,3 %), Qashqadaryo (101,0 %), Surxondaryo (101,0) va Sirdaryo (102,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yilda
YaIM ni shakllantirishda hududlarning ishtiroki
(YaIM ga nisbatan % da)




Respublika bo'yicha YaIM ning shakllanishida Toshkent shahri 13,1 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent viloyati 9,4 % va Samarqand viloyati 7,7 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIM ni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %) va Jizzax viloyatlariga (2,9 %) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,5 %) to'g'ri kelmoqda.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda **Qoraqalpog'iston Respublikasi** YaHM hajmi joriy narxlarda 14 185,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 3,4 % ga o'sdi. YaHM ning o'sishi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 103,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 28,8 %), sanoat – 100,6 % (31,3 %), qurilish – 105,4 % (6,3 %), xizmatlar sohasi – 105,3 % (33,6 %) kabi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7642,9 ming so'mni tashkil etdi va 1,9 % ga o'sdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Andijon viloyati bo'yicha YaHM joriy narhlarda 27 121,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 12,1 % ga o'sdi. Iqtisodiy o'sish qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 105,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 49,3 %), sanoatda - 151,2 % (20,8 %), qurilishda – 106,1 % (4,2 %), xizmatlar sohasida – 104,6 % (25,7 %) kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari natijasida ta'minlandi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8 923,9 ming so'mni tashkil etdi va 10,2 % ga o'sdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Buxoro viloyatida YaHM hajmi 4,6 % ga o'sdi va 21 151,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning tarmoq tarkibida o'sish sur'atlari: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 105,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 51,6 %), sanoatda – 100,3 % (13,9 %), qurilishda – 107,3 % (7,3 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % (27,2 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 3,1 % ga o'sdi va 11 222,4 ming so'mni tashkil etdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Jizzax viloyatida YaHM 2,6 % ga o'sdi va 11 820,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 101,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 60,9 %), qurilishda – 104,4 % (5,0 %), xizmatlar sohasida – 106,1 % (25,2 %) ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ida esa, ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va o'tgan yilga nisbatan 97,8 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 8,9 %). Aholi jon boshiga YaHM hajmi 8 830,3 ming so'mni tashkil etdi va 0,7 foizga o'sdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti 1,0 % ga o'sdi va 28 412,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Jumladan: sanoatda – 103,0 % (YaHM tarkibidagi ulushi 27,1 %), qurilishda – 103,5 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 104,5 % ni (24,9 %) tashkil qildi. Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 96,9 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 42,2 %). Aholi jon boshiga YaHM 1,0 % ga kamaydi va 8 932,1 ming so'mni tashkil etdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Navoiy viloyatida YaHM o'sishi 3,4 % ni tashkil etdi va 21 729,0 mlrd.so'mga yetdi. YaHM tarmoq tarkibida o'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 25,9 %), qurilishda – 128,5 % (4,2 %), xizmatlar sohasida – 105,9 % (15,8 %) tashkil etdi. O'tgan yil bilan taqqoslaganda sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 99,8 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 54,1 %). Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1,7 % ga o'sdi va 22 489,1 ming so'mni tashkil etdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Namangan viloyatida YaHM 18 141,4 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu esa 2017 yil ma'lumotlariga nisbatan 2,5 % ga ko'pdir. YaHM ning o'sish sur'ati sanoatda – 107,5 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 12,0 %), qurilishda – 104,5 % (4,9 %) va xizmatlar sohasida – 104,4 % (32,9 %) kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. O'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 99,5 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 50,2 %). Aholi jon boshiga YaHM 0,6 % ga o'sdi va 6 654,7 ming so'mni tashkil etdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Samarqand viloyatida YaHM hajmi 31 187,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 0,7 % ga kamaydi. Ushbu hududda sanoat tarmog'ida – 105,0% (YaHM tarkibidagi ulushi – 14,0 %), qurilishda – 105,3 % (4,4 %), xizmatlar sohasida – 104,1 % (29,3 %) ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa, ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 2017 yilga nisbatan 94,4 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 52,3 %). Aholi jon boshiga YaHM 2,7 % ga kamaydi va 8 295,8 ming so'mni tashkil etdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Surxondaryo viloyatida YaHM 1,0 % ga o'sdi va 17 061,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, sanoatda – 111,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 7,2 %), qurilishda – 105,9 % (6,4 %), xizmatlar sohasidagi – 104,3 % (31,2 %) ijobiy o'sish sur'atlari xizmat qildi. O'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 96,9 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 55,2 %). Aholi jon boshiga YaHM 6 712,5 ming so'mni tashkil etdi, bu esa 2017 yil ma'lumotlariga nisbatan 1,1 % ga kamdir.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Sirdaryo viloyatida YaHM 2,1 % ga o'sdi va 8 200,5 mlrd.so'mni tashkil etdi. Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida ham ijobiy o'sish sur'atlari qayd etildi. Xususan, o'sish sur'atlari sanoatda 106,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 21,8 %), qurilishda 109,1 % (4,3 %), xizmatlar sohasida 104,7 % (23,6 %) ni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa, ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 2017 yilga nisbatan 97,9 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 50,3 %). Aholi jon boshiga YaHM hajmi 9 966,6 ming so'mni tashkil etdi va 0,4 % ga o'sdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Toshkent viloyatida YaHM 38 398,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 6,4 % ga o'sdi. YaHM ning o'sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Jumladan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 102,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 32,5 %), sanoatda – 111,3 % (40,6 %), qurilishda – 110,1 % (3,1 %), xizmatlar sohasida – 103,7 % (23,8 %). ijobiy o'sish sur'atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YaHM 5,1 % ga o'sdi va 13 333,4 ming so'mni tashkil etdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Farg'ona viloyatida YaHM 3,9 % ga o'sdi va 25 181,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. YaHM ning o'sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liq. O'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 101,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,2 %), sanoatda – 104,8 % (20,6 %), qurilishda – 109,6 % (5,1 %), xizmatlar sohasida – 104,7 % (35,1 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6 895,7 ming so'mni tashkil etdi va 2,2 % ga o'sdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)




Xorazm viloyatida YaHM 15 154,2 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 3,0 % ga ko'pdir. YaHM ning o'sishi sanoat – 114,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 13,9 %), qurilish – 105,7 % (5,4 %), xizmatlar sohasidagi – 104,3 % (29,1 %) o'sish sur'atlari bilan bog'liq. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa, ishlab chiqarish hajmining kamayishi kuzatildi va 2017 yilga nisbatan 98,9 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 51,6 %). Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1,3 % ga o'sdi va 8 325,6 ming so'mni tashkil etdi.




2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)



Toshkent shahrida YaHM 53 287,1 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu esa 2017 yil ma'lumotlariga nisbatan 8,1 % ga yuqoridir. YaHM o'sishining asosiy omillari bo'lib, sanoat – 106,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 36,3 %), qurilish – 110,6 % (8,1 %), xizmatlar sohasidagi – 108,8 % (55,6 %) ijobiy o'sish sur'atlari hisoblanadi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6,2 % ga o'sdi va 21 419,4 ming so'mni tashkil etdi.



2018 yilda YaHM ning o'sish sur'ati

(2017 yilga nisbatan foizda)

